

Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyun oylarida, Tashkent shahrida jami 38 091,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 117,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	38 091,1	117,4
Bektemir	1 255,8	155,2
Mirzo Ulug'bek	2 990,3	121,1
Mirobod	3 491,2	103,4
Olmazor	2 057,1	112,1
Sergeli	1 501,0	110,8
Uchtepa	1 211,4	104,3
Chilonzor	1 940,5	114,4
Shayxontoxur	2 225,6	103,5
Yunusobod	4 789,2	117,2
Yakkasaroy	3 860,1	122,7
Yangi xayot	1 328,8	111,1
Yashnobod	3 171,9	145,5
Taqsimlanmagan hajim	8 268,1	118,4


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyun oylarida Tashkent shahrida bajarilgan qurilish ishlarinining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 64,6 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 115,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 33,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 16,7 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 122,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	5 952,8	3 459,0	2 159,7
o'sish sur'ati, %	114,9	66,8	2,3 m.
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	14 276,9	3 684,7	4 199,3
o'sish sur'ati, %	107,3	28,1	99,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	4 358,5	-	-
o'sish sur'ati, %	108,0	-	-

Mavzuga doir ko'satkichlar:

- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
- [Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
- [Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 11 571,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 144,1 % ni va ularning umumiyligi hajmdagi ulushi 5,6 % ga ko'payib, 30,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,2 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil etgan holda 22 161,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 11,4 % ni yoki 4 358,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 145,8 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd. so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Toshkent sh.	11 571,6	22 161,0	4 358,5	143,9	103,5	145,8
Bektemir	875,9	316,1	63,8	4,6 m.	54,5	173,5
Mirzo Ulug'bek	633,3	2 096,8	260,2	104,9	123,4	156,9
Mirobod	957,0	2 337,0	197,2	98,9	101,5	188,3
Olmazor	645,7	1 305,1	106,3	119,7	110,8	90,3
Sergeli	143,7	1 106,7	250,6	99,1	101,2	2,1 m.
Uchtepa	137,9	807,9	265,6	82,7	93,5	2,1 m.
Chilonzor	534,8	1 304,4	101,2	184,8	100,1	97,8
Shayxontoxur	823,6	1 278,9	123,1	84,5	119,8	114,2
Yunusobod	2 671,6	1 956,0	161,6	117,9	116,1	118,3
Yakkasaroy	1 327,9	2 388,1	144,2	3,1 m.	91,3	144,7
Yangihayot	340,2	853,0	135,6	154,7	97,0	140,0
Yashnobod	1 201,1	1 828,1	142,6	5,1 m.	100,2	117,4
Taqsimlanmagan hajim	1 278,9	4 582,7	2 406,5	126,8	106,0	145,6

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori o'sish sur'atlari Yashnobod tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 5,1 m.), Bektemir tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 4,6 m.), Yakkasaroy tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 3,6 m.) va Chilonzor (2024-yilning mos davriga nisbatan 184,8 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori o'sish sur'atlari Mirzo Ulug'bek tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 123,4 %), Shayxontoxur tumani (119,8 %) va Yunusobot (116,1 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quydagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Tashkent shahri Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuvi ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Sabirova
71 203-88-18 (3522)

Manzil:

